



CULTURAL DEVELOPMENT IN THE STATE OF AMIR TEMUR: SCIENTIFIC AND SPIRITUAL HERITAGE AND ITS SIGNIFICANCE

Mexroj Murodjonovich Abdiyev

Student

National University of Uzbekistan

E-mail: abdiyevmexroj12@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Amir Temur, culture, science, architecture, literature, sufism, madrasa, renaissance.

Received: 13.08.25

Accepted: 14.08.25

Published: 15.08.25

Abstract: This article examines the main directions of cultural life in the state of Amir Temur, highlighting achievements in scientific, architectural, literary, and religious fields. Amir Temur viewed culture as a crucial factor in state development and paid special attention to the promotion of science, art, and architecture. The study presents an analysis of these processes, their representatives, and their legacy.

AMIR TEMUR DAVLATIDA MADANIY TARAQQIYOT: ILMIY-MA'NAVIY MEROS VA UNING AHAMIYATI

Mexroj Murodjonovich Abdiyev

Talaba

O'zbekiston Milliy universiteti

E-mail: abdiyevmexroj12@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Amir Temur, madaniyat, ilm-fan, me'morchilik, adabiyot, tasavvuf, madrasa, renessans.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur davlatidagi madaniy hayotning asosiy yo'nalishlari, uning ilmiy-ma'rifiy, me'moriy, adabiy va diniy sohalardagi yutuqlari tahlil qilinadi. Amir Temur madaniyatni davlat taraqqiyotining muhim omili sifatida qarab, ilm-fan, san'at va arxitekturani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. Maqolada mazkur jarayonlarning tarixi, asosiy namoyandalari va qoldirgan merosi yoritilgan.

КУЛЬТУРНОЕ РАЗВИТИЕ В ГОСУДАРСТВЕ АМИРА ТЕМУРА: НАУЧНО-ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ

Мехрож Муроджонович Абдиев*Студент**Национальный университет Узбекистана**E-mail: abdiyevmexroj12@gmail.com**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: Амир Темур, культура, наука, архитектура, литература, суфизм, медресе, ренессанс.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные направления культурной жизни в государстве Амира Темура, включая достижения в научно-просветительской, архитектурной, литературной и религиозной сферах. Амир Темур рассматривал культуру как важный фактор развития государства, придавая особое значение науке, искусству и архитектуре. В статье освещаются эти процессы, их представители и оставленное ими наследие.

Dolzarbli: Amir Temur davlatining madaniy hayoti va uning turkiy hamda islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi nafaqat O'zbekiston tarixshunosligi, balki butunjahon madaniy taraqqiyotini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Temuriylar sulolasi hukmronligi davrida esa Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasida madaniy aloqalar faollashdi, ilm-fan, me'morchilik, adabiyot, tarixnavislik, san'at va hunarmandchilik sohalarida yuksak yutuqlar qayd etildi.

Ayniqsa, Amir Temur va uning vorislari tomonidan ilm ahli, ziyolilar va san'atkorlarga yaratilgan sharoit tufayli turkiy xalqlarning ma'naviy taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davr, haqli ravishda, Temuriylar Renessansi sifatida baholanadi. Bu qayta rivojlanish jarayoni nafaqat milliy madaniyatni, balki umuminsoniy qadriyatlarni boyitishga xizmat qildi [1].

Hozirgi davrda Amir Temur va Temuriylar davri madaniy merosini chuqur o'rganish milliy o'zlikni anglash, ma'naviy tiklanish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bu meros milliy g'oyaning tarixi manbai, milliy ruh va ma'naviyatni mustahkamlashga yo'naltirilgan davlat siyosati uchun ilmiy tayanch vazifasini o'taydi. Shu boisdan ham mazkur mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, arxiv va manbalarni chuqur tahlil qilish hamda uni xalqaro ilmiy maydonga olib chiqish dolzarb vazifalardan biridir.

O'rganilganlik darajasi: Amir Temur davlatidagi madaniy taraqqiyot masalasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar so'nggi o'n yilliklarda tarixshunoslikda alohida yo'nalish sifatida shakllandi. Bu borada tarixchi, sharqshunos va madaniyatshunos olimlar tomonidan keng qamrovli izlanishlar olib borilgan bo'lib, ular Amir Temur va Temuriylar davri madaniyatini turli jihatlarini orqali ochib berishga harakat qilganlar.

Xususan, tarixchi olim Bahodir Ahmedovning “Temur va Temuriylar” kabi asarlarida Amir Temurning davlatchilik falsafasi bilan bir qatorda, uning madaniy sohadagi siyosati ham tahlil qilinadi. U Amir Temurning ilm-fan va madaniyatga homiylik qilganini, ilm ahli va ziyolilarga e’zoz ko’rsatganini ta’kidlaydi. B.Ahmedovning fikricha, Amir Temur ilm va madaniyatni davlat qurilishiga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida qaragan.

Shuningdek, A.Muqimov tomonidan yozilgan ilmiy maqolalarda Temuriylar davridagi ilm-fan va ta’lim muassasalari, madrasalar, kutubxonalar faoliyati chuqur tahlil etiladi. U, xususan, Samarqandda ilmiy muhit shakllanishi, unda mutafakkirlar va ulamolarning ishtirokini Amir Temurning ma’rifiy siyosati bilan bog’laydi. A.Muqimovning ta’kidlashicha, Amir Temur qo’llab-quvvatlagan ilmiy muhit keyinchalik Ulug’bek davridagi ilmiy tiklanishga asos solgan.

Madaniyat va san’at sohasiga oid tadqiqotlarda esa Rahmatillo Masudovning asarlari alohida o’rin tutadi. Uning “Temuriylar davri madaniyati” asarida adabiyot, san’at, musiqa va teatr kabi sohalardagi taraqqiyot Temuriylar davrining madaniy yuksalishini belgilaganini ko’rsatadi. R.Masudov Amir Temurning ma’naviy qiyofasini milliy madaniyatni qayta tiklashda ilhom manbai sifatida tavsiflaydi va uning madaniy siyosatini umuminsoniy sivilizatsiya bilan bog’laydi.

Bu bilan bir qatorda, Amir Temur va Temuriylar davri arxitekturasini o’rgangan Bahrom Matkarimovning tadqiqotlari ham muhim o’ringa ega. U Amir Temur qurdirgan masjidlar, madrasalar va saroylarning arxitektura uslubi, badiiy qiyofasi orqali bu davrning madaniy yuksalishi va estetik qarashlarini ko’rsatib beradi. Matkarimov fikricha, Amir Temur va Temuriylar davri me’morchiligi nafaqat texnik yutuq, balki mafkuraviy va ma’naviy timsol sifatida ham xizmat qilgan [2].

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotchilarning asarlari bir-biri bilan uzviy bog’langan bo’lib, Amir Temurning madaniy siyosati turli qirralardan – tarixiy, ma’rifiy, san’atshunoslik va me’morchilik nuqtai nazaridan keng tahlil etilgan. Ular birgalikda Temuriylar davrini turkiy xalqlar madaniyatining Renessans davri sifatida ta’riflashga ilmiy asos yaratadi.

Hozirgi kunda esa Amir Temurning madaniyatga oid merosini faqat tarixiy asosda emas, balki uni zamonaviy istiqbol va global madaniy jarayonlar bilan uyg’un holda qayta tahlil etish zarurati tug’ilmoqda. Mustaqillikdan keyingi milliy tiklanish jarayonlari Temuriylar davri madaniy merosining yangi qirralarini ochib bermoqda. Shu bois, Amir Temur davlatining madaniy siyosati va uning umuminsoniy tamaddunga qo’shgan hissasini chuqur va kompleks tahlil qilish bugungi tarixshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo’lib qolmoqda [3].

Asosiy qism: Amir Temurning davlat boshqaruvi siyosatida madaniyat alohida o’rin tutar edi. U madaniyatni faqat ma’naviy hayotning bir qismi deb emas, balki davlatchilikning mustahkam poydevori, jamiyatni uyushtiruvchi ma’rifiy vosita sifatida qarardi. Amir Temur o’zining mashhur “Tuzukot” asarida ta’lim-tarbiya, ilm-fan va dinni davlat barqarorligiga xizmat qiluvchi muhim

ustunlardan biri sifatida ta'riflaydi. Shu nuqtai nazardan, uning madaniyat siyosati juda tizimli va maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, ko'p qirrali xususiyatga ega edi.

Amir Temur ilm-fan sohasida donishmandlar, faqihlar, tabiblar va munajjimlarni yig'ib, ularga katta hurmat va rag'bat bilan munosabatda bo'lgan. U o'z hukmronligi davrida qo'llanma va ilmiy risolalar yozishni qo'llab-quvvatlagan, olimi va mutafakkirlar uchun madrasa va kutubxonalar qurdirgan. Shu orqali uning siyosatida ilmga homiylik qilish markaziy o'rin egalladi [4].

Adabiyot va tarixshunoslik sohasida ham Amir Temur zich faoliyat olib borgan. Uning saroyida tarixchilar va adiblar faoliyat yuritgan bo'lib, ular orasida Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy kabi tarixchilar bor edi. Ularning asarlarida Amir Temurning siyosiy va harbiy faoliyati bilan birga, madaniy ishlari ham alohida tartibda yoritilgan. Bular Amir Temurning o'z tarixi va merosini hujjatlashtirishga bo'lgan e'tiboridan dalolat beradi.

Amir Temurning madaniy siyosatini yana bir muhim jihati – me'morchilik va bunyodkorlik sohasida namoyon bo'ladi. Uning davrida Samarqand, Kesh (Shahrisabz), Toshkent, Hirot kabi shaharlar nafaqat ma'muriy va iqtisodiy, balki madaniy markazlar sifatida ham yuksaldi. Samarqand Temuriylar davrida haqli ravishda "Sharqning durdonasi" deb atab kelingan. Amir Temur bu shaharlarni bezashda nafaqat ziynat, balki simvolik va ma'naviy ma'no kasb etuvchi me'moriy uslublarga e'tibor bergan. Masalan, Bibixonum masjidi, Go'ri Amir maqbarasi kabi inshootlar nafaqat diniy, balki madaniy va davlat ramzi sifatida qurilgan [5].

Diniy ta'lim va ma'naviy muhitga ham alohida e'tibor qaratilgan. Amir Temur diniy ulamolar va faqihlarni himoya qilgan, masjidlar va madrasalar qurdirgan. Bu muassasalar nafaqat ibodat joyi, balki ilm-fan va axloqiy tarbiya markazlari sifatida ham faoliyat yuritgan. Uning siyosatida din va ilm bir-birini to'ldiruvchi omillar sifatida qaralgan.

Shu tariqa, Amir Temurning madaniyat siyosati butun davlat qurilishida markaziy o'rin egallab, ilm, ma'rifat, san'at va dinni uyg'unlashtirishga asoslangan edi. Bu siyosat nafaqat Temuriylar davlatini mustahkamlashda, balki keyingi avlod – Xorazmiy, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod kabi buyuk alloma va san'atkorlarning vujudga kelishida ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Amir Temur davrida ilm-fan va ta'lim sohasi davlat siyosati darajasida rivojlantirildi. Temur o'z hukmronligini faqatgina harbiy zafarlar bilan emas, balki ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot orqali ham mustahkamlashni ko'zladi. Shu bois, u ilm va bilimni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko'rdi. Davlat siyosatidagi bunday yondashuv ilm ahli, ulamolar, tabiblar va astronomlarga homiylik qilish, ular uchun munosib sharoit yaratish bilan ifoda topdi [6].

Amir Temurning ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibori uning tomonidan qurdirilgan madrasa va kutubxonalar, ilmiy muhitning shakllantirilishi orqali yaqqol namoyon bo'ldi. Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Hirot kabi markazlarda bilim maskanlari barpo etilib, bu yerlarda diniy va

dunyoviy fanlar birgalikda o'qitildi. Astronomiya, matematika, tibbiyot, tarix va geografiya kabi sohalarga katta ahamiyat berildi.

Amir Temur ilmiy markazlarda faoliyat yuritgan ulamolar va mutafakkirlarni himoya qilgan. Masalan, tarixchi Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy Temur siymosini tarixiy hujjatlarda yoritgan, uning ilmiy-amaliy faoliyatini hujjatlashtirgan. Ushbu muhit keyinchalik Amir Temurning nabirasi – buyuk mutafakkir va astronom Mirzo Ulug'bekning yetishib chiqishiga zamin yaratdi. Ulug'bekning Samarqandda qurgan rasadxonasi, "Ziji Jadid" kabi asarlari aynan Amir Temur tomonidan yaratilgan ilmiy muhitning mantiqiy davomi sifatida yuzaga keldi.

Amir Temur kutubxona va kutubxonalar qurishga alohida e'tibor berdi. Samarqanddagi ilmiy markazlarda Sharq va G'arbning turli manbalarini o'z ichiga olgan katta kutubxonalar faoliyat yuritgan. U bu kutubxonalarni faqat din bilan bog'liq adabiyotlar bilan emas, balki falsafa, tabobat, jug'rofiya va boshqa sohalardagi kitoblar bilan to'ldirishni buyurgan. Bu esa Temurning keng fikrli va taraqqiyotga intiluvchan hokim ekanini ko'rsatadi.

Amir Temurning ilm-fan va ta'limga bunday yuqori darajada e'tibor qaratishi, nafaqat uning davrida, balki Temuriylar davri va undan keyingi asrlarda ham turkiy va islomiy ilmiy an'analarning davom etishiga yo'l ochdi. Bu siyosat hozirgi kunga qadar ma'naviy meros sifatida saqlanib qolgan va milliy tiklanish jarayonlarida muhim ilmiy asos vazifasini bajarmoqda.

Temuriylar davri – turkiy va forsiy tildagi adabiyotning gullab-yashnagan, ma'naviy yuksalishga erishgan davri sifatida tarixda alohida o'rin tutadi. Amir Temur hukmronligi davrida shakllangan siyosiy barqarorlik va madaniy rivoj jarayoni adabiy hayot uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bu davrda davlat siyosatida ilm bilan bir qatorda, adabiyot va til masalasi ham strategik ahamiyatga ega bo'ldi [7].

Amir Temur adabiyotni davlat ideologiyasini shakllantirish, xalqni ma'nan tarbiyalash vositasi sifatida ko'rdi. Uning homiyligi bilan saroy atrofida turli sohalarda qalam tebratgan adiblar, tarixchilar va lug'atnavislar faoliyat yuritdilar. Bu jarayonda turkiy va forsiy tildagi adabiy namunalar yuksak ijodiy darajaga ko'tarildi. Har ikki tilda she'riyat, tarix, nasr, maqolalar, qasidalar va manzuma asarlar yaratildi.

Temuriylar davri adabiyotida forsiy tilining klassik an'analari saqlangan bo'lsa-da, turkiy tilda ijod qilishga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Bu, o'z navbatida, turkiy xalqlarning til va adabiyot sohasidagi milliy o'zligini rivojlantirishga olib keldi. Bu jarayon keyinchalik Alisher Navoiy ijodiyotida o'zining yuksak namunasini topadi.

Amir Temurning shaxsan o'zi ham adabiyotga qiziqish bildirgan. U tarixiy va siyosiy mazmundagi asarlarni to'plashga, tahrir qilishga va ayrimlarini shaxsan yozishga ham mas'ul bo'lgan. Ta'rixchilarning ta'kidlashicha, Amir Temur "Tuzukoti Temuriy" ("Temurning qonunlari") asarining yaratilishida bevosita ishtirok etgan. Bu asarda uning davlat boshqaruvi, harbiy siyosati,

shaxsiy hayoti va ma'naviy qarashlari aks etgan bo'lib, o'ziga xos tarixiy-siyosiy adabiy namuna hisoblanadi [8].

Amir Temur va Temuriylar zamonida lug'atlar va adabiy to'plamlar ham yaratilgan. Bu lug'atlar orqali tilning tuzilishi, so'z boyligi va uslubiy qirralari mustahkamlangan. Ayniqsa, islomiy bilimlar, falsafa va adabiyot sohalaridagi atamalarni tartibga solish va ma'nolarini aniqlash maqsadida ishlangan lug'atlar til madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilgan.

Shu tariqa, Temuriylar davrida adabiyot va til sohasida yuz bergan yutuqlar nafaqat ma'naviy taraqqiyotning ko'rsatkichi, balki madaniyat siyosatidagi yetuklik va strategiyaning yorqin ifodasi bo'lib qoldi. Bu yutuqlar keyingi asrlarda ham o'z ta'sirini saqlab qoldi va turkiy xalqlar madaniy o'zligi shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Xulosalar: Amir Temur davlatida madaniyat jamiyatning turli jabhalarida yuksak rivojlandi va bu jarayon o'ziga xos madaniy muhitni yaratdi. Uning madaniyat siyosati, ilm-fan va san'atga ko'rsatgan e'tibori uning siyosiy kuchi bilan uyg'un tarzda amalga oshirildi. Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati nafaqat o'z davri, balki keyingi asrlar uchun ham ulkan ilmiy va ma'naviy meros qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ahmedov B. Temur va Temuriylar. – Toshkent: Sharq, 1996.
2. Muqimov A. Amir Temur davridagi madaniyat va ma'rifat. – Toshkent: Fan, 2001.
3. Matkarimov B. Amir Temur va uning madaniy merosi. – Samarqand, 2012.
4. Barthold V.V. Turkestan Down to the Mongol Invasion. – London, 1928.
5. Subtelny M. Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Brill, 2007.
6. Woods J.E. The Timurid Dynasty. The Journal of the American Oriental Society, 1990.
7. Amir Temur jahon tarixida. BMT. YUNESKO. Parij, 1996.
8. Amir Temur. Temur Tuzuklari. – Toshkent: Hilol media, 2018.